

## Surxondaryo viloyatida xizmatlar sohasining asosiy koʻrsatkichlari<sup>1</sup>

2026-yil yanvar-fevral


- I. Xizmatlar sohasining asosiy koʻrsatkichlari dinamikasi
- II. Xizmatlar sohasinshahar va tumanlarkesimida rivojlanishi
- III. Iqtisodiy faoliyat turlari boʻyicha xizmatlar sohasi rivojlanishining asosiy koʻrsatkichlari
- IV. Xizmatlar sohasining statistik koʻrsatkichlari boʻyicha tushuntirishlar
- V. Foydali havolalar

### I. Xizmatlar sohasining asosiy koʻrsatkichlari dinamikasi

2026-yil yanvar-fevral oylari dastlabki maʼlumotlar boʻyicha, norasmiy va yashirin iqtisodiyotni baholash boʻyicha oʻtkazilgan statistik kuzatuvlar natijalarini hisobga olgan holda, bozor xizmatlari hajmi **5 483,7** mlrd soʻmni tashkil etdi. 2025-yilning mos davriga nisbatan oʻsish surʼati **117,4** % ni tashkil etib, uning hajmi esa **1 078,7** mlrd soʻmga oʻsishi qayd etildi.

*Maʼlumot uchun: 2025-yil yanvar-fevral oylarida xizmatlar hajmi 4 405,0 mlrd soʻmni, oʻsish surʼati esa 111,4 % ni tashkil etgan.*

Koʻrsatilgan bozor xizmatlarining oʻsish surʼati dinamikasi



2025-yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan (**1 513,1** ming soʻm) 2025-yilning mos davrida aholi jon boshiga koʻrsatilgan bozor xizmatlari hajmi **1 841,3** ming soʻmga yoki **14,8** % ga oʻsib, **328,2** ming soʻmni tashkil etgan.

<sup>1</sup>2025-yil yanvar oylari hajmi va 2025-yil yanvar oylari uchun maʼlumotlar norasmiy va yashirin iqtisodiyotni baholash boʻyicha oʻtkazilgan statistik kuzatuvlar natijalarini hisobga olgan holda shakllantirilgan.



2026-yilning tahlil qilinayotgan davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **3 974,6** mlrd so'mni yoki bozor xizmatlari umumiy hajmining **72,5** % ini, jumladan, **37,0** % ini kichik korxonalar va mikrofirmalar tashkil etdi.

## **II. Xizmatlar sohasini shahar va tumanlar kesimida rivojlanishi**

Xizmatlar sohasining shahar va tumanlar kesimidagi asosiy ko'rsatkichlari  
2026-yil yanvar-fevral

	Hajmi, mlrd so'm	Ulushi, % da	O'sish sur'ati, % da
<b>Surxondaryo viloyati</b>	<b>5 483,7</b>	<b>100,0</b>	<b>117,4</b>
Termiz sh.	1007,3	18,4	122,7
tumanlar			
Oltinsoy	151,4	2,8	116,8
ngor	160,4	2,9	118,5
Bandixon	92,6	1,7	116,1
Boysun	118,7	2,2	117,2
Muzrabot	158,8	2,9	115,9
Denov	486,9	8,9	119,9
Jarqo rg on	214,7	3,9	117,9
Qumqo rg on	315,4	5,8	109,2
Qiziriq	140,0	2,6	117,6
Sariosiyo	226,0	4,1	118,1
Termiz	193,3	3,5	121,0
Uzun	154,4	2,8	117,5
Sherobod	204,0	3,7	117,9
Sho rchi	204,2	3,7	118,1

**Mavzu bo'lyicha ko'rsatkichlar:**

[Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining shahar va tumanlar kesimidagi hajmi](#)

## **III. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'lyicha xizmatlar sohasi rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 27-martdagi %Xizmatlar sohasi barqaror rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida +PQ-78-son qarorida mamlakatimiz iqtisodiyotida xizmatlar sohasi ulushini oshirish, shuningdek, sohada faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlarini yanada qo'llab-quvvatlash maqsadida xizmatlar sohasini rivojlantirish hamda uning monitoringini yuritish bo'lyicha maqsadli parametrlari belgilangan.

Ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmining o'sishiga ta'sir ko'rsatgan asosiy omillar savdo xizmatlarning 18,7 % ga (umumiy ko'rsatilgan xizmatlar hajmining o'sishiga qo'shgan hissasi 4,5 band), yashash va ovqatlanish xizmatlarning 13,4 % ga o'sishi ( o'sishiga qo'shgan hissasi 3,2 band), moliyaviy xizmatlarning 26,0 % ga (o'sishiga qo'shgan hissasi 3,9 band), transport xizmatlarning boshqa xizmatlarining 15,6 % ga (o'sishiga qo'shgan hissasi 2,0 band) oshishi bo'ldi.

Xizmatlar sohasining asosiy turlari bo'yicha ko'rsatkichlari (yanvar-fevral)

	Hajmi, mlrd so'm		O'sish sur'ati, % da
	2025-y.	2026-y.	
<b>Xizmatlar E'jami</b>	<b>4 405,0</b>	<b>5 483,7</b>	<b>117,4</b>
<i>shundan:</i>			-
aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	210,1	261,2	111,5
moliyaviy xizmatlar	644,3	822,1	126,0
transport xizmatlari	565,7	702,2	115,6
<i>shu jumladan: avtotransport xizmatlari</i>	516,7	621,8	111,6
yashash va ovqatlanish xizmatlari	1 066,1	1 313,1	113,4
savdo xizmatlari	1 041,1	1 290,9	118,7
ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	90,3	106,8	114,1
ta'lim sohasidagi xizmatlar	164,2	208,6	126,1
sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	78,9	93,7	108,7
ijara xizmatlari	66,2	87,2	122,6
kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	112,9	131,6	111,3
shaxsiy xizmatlar	134,9	164,2	109,1
me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	52,5	58,2	103,1
boshqa xizmatlar	177,8	243,9	125,9


**Mavzu bo'yicha ko'rsatkichlar:**

[Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy turlari bo'yicha hajmi](#)

2026-yil yanvar-fevral oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida savdo xizmatlari **23,5 %**, yashash va ovqatlanish xizmatlari **23,9 %**, moliyaviy xizmatlar **15,0 %**, transport xizmatlari **12,8 %**, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari **4,8 %**, boshqa xizmatlar esa **4,4 %** ulushini tashkil etdi.

*Taqqoslash uchun: 2025-yilning tahlil qilinayotgan davrida xizmatlarning umumiy hajmida yashash va ovqatlanish xizmatlari 24,2 %, savdo xizmatlari 23,6 %, moliyaviy xizmatlar 14,6 %, transport xizmatlari 12,8 %, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari 4,8 %, boshqa xizmatlar esa 4,0 % ulushini tashkil etgan.*


Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining asosiy turlari bo'yicha tarkibi  
2026-yil yanvar-fevral % da



**Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari** hajmining o'sishiga **telekommunikatsiya xizmatlarining** o'sishi taqdir ko'rsatdi. 2026-yilning tahlil qilinayotgan davrida ushbu turdagi xizmatlarning aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi **69,0** foizni tashkil etdi. 2025-yilning mos davriga nisbatan esa **4,4** foizga o'sgan.

2026-yilning yanvar-fevral oylarida **moliyaviy xizmatlar** tarkibidagi **moliyaviy xizmatlar, sug'urta va pensiya ta'minoti xizmatidan tashqari** o'sish kuzatildi. 2025-yilning mos davriga nisbatan hajmi **174,0** mlrd so'ngga yoki **30,0** foizga o'sishi kuzatildi.

**Moliyaviy xizmatlar, sug'urta va pensiya ta'minoti xizmatidan tashqari  
xizmatlarining o'sish sur'ati dinamikasi**



2026-yilning tahlil qilinayotgan davrida **transport** sohasida **omborga joylashtirish va yordamchi transport xizmatlari (170,4 %)**, **pochta va kuryerlik (124,8 %)** xizmatlarida yuqori o'sish sur'ati qayd etildi. Havo transporti xizmatlarining o'sishiga xalqaro va ichki turizmning rivojlanishi, parvozlar sonining ortishi, shuningdek, ko'plab mamlakatlar uchun vizasiz rejimning joriy etilishi ta'sir ko'rsatdi. Elektron tijoratning rivojlanishi (OZON, Wildberries, AliExpress, mahalliy bozorlarda onlayn xaridlarning ko'payishi), Express24, MyTaxi Delivery, Yandex Go, Uzum Tezkor va boshqa xususiy tashkilotlarning paydo bo'lishi, logistika infratuzilmasining takomillashtirilgani pochta va kuryerlik xizmatlariga bo'lgan talabni oshishiga turtki bo'ldi. Aeroportlarni modernizatsiya qilish imkoniyatini oshirish va yo'lovchilarga xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilashga imkon beradi, bu esa o'z navbatida omborga joylashtirish va yordamchi transport xizmatlarini rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

O'zbekistonda **yashash va ovqatlanish xizmatlarining** rivojlanishi sezilarli o'sishni ko'rsatmoqda, bu sayyohlar oqimining ko'payishi, ishbilarmonlik aloqalarining kengayishi va mamlakatda infratuzilmaning yaxshilanishi bilan keskin bog'liqdir. Ushbu xizmatlarning o'sishiga **oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar** hajmining oshishi ta'sir ko'rsatdi, yashash va ovqatlanish xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi **97,1 %** ni tashkil etdi. 2026-yilning yanvar-fevral oylarida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlarning o'sish sur'ati **113,5 %** ni tashkil etdi.

#### **IV. Xizmatlar sohasining statistik ko'rsatkichlari bo'yicha tushuntirishlar**

##### **Xizmatlarning har oylik hajmi quyidagilar asosida shakllantiriladi:**

a) tijoratchi tashkilot bo'lgan yuridik shaxslar (kichik korxonalar, mikrofirma va qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilaridan tashqari), tijoratchi tashkilot bo'lgan yuridik shaxslarning alohida bo'linmalari va notijorat tashkilotlar bo'yicha statistik hisobot (ro'yxat bo'yicha);

b) kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmini choraklik kuzatuv ma'lumotlari hamda kichik korxonalar va mikrofirmalar uchun yagona yillik hisobot natijalari bo'yicha baholash;



d) fermer xo'jaliklari va notijorat tashkilotlar tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmini tegishli statistika hisobotlari ma'lumotlariga asosan baholash;

e) yakka tartibdagi tadbirkorlar va o'zini o'zi band qilgan shaxslar tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmini har chorakda o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlarining natijalari bo'yicha baholash.

**Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi bu.** xizmat ko'rsatishga ixtisoslashgan va xizmat ko'rsatish asosiy faoliyat turi hisoblanoktabrdigan barcha xizmatlar ko'rsatuvchilar (yuridik va jismoniy shaxslar) tomonidan iste'molchilarga (yuridik va jismoniy shaxslar, norezidentlarni qo'shgan holda) ma'lum bir vaqt davomida ko'rsatilgan xizmatlar qiymatidir.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha **ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmida** ko'rsatilgan xizmatlar uchun amaldagi bozor narxlarini bo'yicha **hisoblangan to'lovlar qo'shilgan qimmat solig'i va aksizsiz** hisobga olinadi.

Xizmatlar oldi-sotdi obyektiga bo'lib, iqtisodiy ahamiyatga ega (xizmatlarni ishlab chiqaruvchining sarf-xarajatlari to'lovlar yoki sezilarli darajada qoplaydigan) narxlarida sotilganda **bozor xizmatlari ishlab chiqarilishi** hisoblanadi. Iste'molchilar tomonidan xizmatlar uchun to'lovlar naqd pul, shu jumladan, plastik kartochkalar va pul o'tkazish, elektron to'lovlar va elektron pullar orqali amalga oshirilishi mumkin.

**Norezidentlarga ko'rsatilgan xizmatlar** (agar to'lov so'mda amalga oshirilmagan bo'lsa), xizmatlarga to'lovlarni amalga oshirish sanasida O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan so'mning belgilangan kursi bo'yicha qayta hisoblangan shartnoma narxlarini bo'yicha aniqlanadi.

Faoliyat turlari bo'yicha **xizmatlarni tasniflash**, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlar (tovarlar, ishlar, xizmatlar)ning statistik tasniflagichiga muvofiq amalga oshiriladi.

**Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi** MST bo'yicha tasniflangan barcha iqtisodiy faoliyat turlarining xizmatlarga tegishli qismi (G-S seksiyalar) bo'yicha shakllantiriladi.

## V. Foydali havolalar

[Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining statistik hisobi bo'yicha uslubiy nizom](#)

[O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlarning \(tovarlar, ishlar, xizmatlarning\) statistik tasniflagichi \(MST\)](#)

[O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlarning \(tovarlar, ishlar, xizmatlarning\) statistik tasniflagichining G, H, I, J, K, L, M, N, O, P, Q, R va S seksiyalari kodlarining batafsil \(kengaytirilgan\) ro'yxati](#)

**Chop etish uchun mas'ul:**  
Xizmatlar va savdo sohasi  
statistikasi bo'limi

**Manzil:** 180100, Surxondaryo  
viloyati, At-Termiziy ko'chasi, 7-uy  
**Pochta:** [info@surxonstat.uz](mailto:info@surxonstat.uz)  
**Tel.:** 75-90, 55-541-80-00

